

ZAFARZODA Javohir

O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi

Tarix instituti

kichik ilmiy xodimi

E-mail: azimkulob@gmail.com

VIII–IX ASRLARDA TURONDA ARAB XALIFALIGI YER- MULKCHILIK TIZIMI: XAROJIY, SAVOFIY VA IQTO YERLARI TAHLILI

THE LAND OWNERSHIP SYSTEM OF THE ARAB CALIPHATE IN TURAN DURING THE 8TH–9TH CENTURIES: AN ANALYSIS OF KHARAJI, SAWAFI, AND IQTA LANDS

СИСТЕМА ЗЕМЛЕВЛАДЕНИЯ АРАБСКОГО ХАЛИФАТА В ТУРАНЕ В VIII–IX ВЕКАХ: АНАЛИЗ ХАРАДЖНЫХ, САВАФИЙСКИХ И ИКТА ЗЕМЕЛЬ

Annotatsiya. Ushbu maqolada VIII–IX asrlarda Arab xalifaligi tomonidan Turon (Markaziy Osiyo) hududlarining egallanishi ortidan shakllangan yer-mulkchilik tizimi chuqur tahlil qilinadi. Asarda ayniqsa xarojiy yerlar, savofiy yerlar va iqto yerlarining huquqiy maqomi, iqtisodiy funksiyasi va jamiyatdagi o'rni haqida mufassal ma'lumotlar berilgan. Muallif mavzuni yoritishda zamonaviy tadqiqotlar bilan bir qatorda, xaroj kitoblari, islomiy-huquqiy manbalar va umumiy tarixga oid manbalardan keng foydalanadi. Maqolada Arab xalifaligining soliq siyosati va uning mahalliy aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri ham o'rganilgan. Tadqiqot natijalari Turondagi yer-mulkchilik tizimining o'ziga xos jihatlari ochib beradi va o'rta asrlar agrar munosabatlarini anglashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Turon, yer-mulkchilik, xarojiy yerlar, savofiy yerlar, iqto, qatia, masoha tizimi, muqosama tizimi.

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the land ownership system established in Turan (Central Asia) during the 8th–9th centuries following the conquest by the Arab Caliphate. Particular attention is given to the legal status, economic function, and social significance of kharaji lands, sawafi lands, and iqta lands. The author utilizes not only modern

research but also historical sources such as kharaj books, Islamic legal texts, and chronicles. The study also explores the tax policies of the Arab Caliphate and their impact on the socio-economic life of the local population. The findings offer valuable insights into the unique features of land ownership in Turan and serve as an important resource for understanding medieval agrarian relations.

Keywords: Turan, land ownership, kharaji lands, sawafi lands, iqta, qatia, *masaha* system, *muqasama* system.

Аннотация. В данной статье представлен подробный анализ системы землевладения, сложившейся в Туране (Центральная Азия) в VIII–IX веках после завоевания региона Арабским халифатом. Особое внимание уделяется правовому статусу, экономической функции и социальной значимости харраджных земель, савафийских земель и икта. Автор использует как современные исследования, так и исторические источники, включая книги о харадже, исламские правовые тексты и хроники. В исследовании также рассматривается налоговая политика Арабского халифата и её влияние на социально-экономическую жизнь местного населения. Полученные результаты позволяют глубже понять особенности землевладения в Туране и служат важным источником для изучения аграрных отношений средневековья.

Ключевые слова: Туран, землевладение, хараджные земли, савафийские земли, икта, катия, система масаха, система мукасама.

KIRISH

VII asr o'rtalarida arab xalifaligi qo'shinlari nafaqat Turon hududiga harbiy yurushlar boshladi balki bir vaqtning o'zida Hinduston, Shimoliy Afrika, Andalus sarhadlariga qadar kirib borishdi. Xalifalik qo'shinlarining bu harakatlari markaziy hokimiyatdagi nizolar sababli qarib VIII asrning boshlariga qadar deyarli to'xtab qoldi. Abdulloh ibn Zubayr boshchiligidagi umaviylarga qarshi qaratilgan harakatlar natijasiz tugadi [5: 414] va hokimiyat umaviy sulolasining sufyoniyalar urug'idan Marvon ibn Hakam yetakchiligidagi marvoniylar urug'i nazoratiga o'tdi.

Xalifa Valid ibn Abdulmalik (86-96/705-715) hukmronlik davri umaviylarning eng qudratli davri bo'ldi. Uning davrida arab xalifaligi qo'shinlari g'arbda Andalus, sharqda esa Turon-Turkiston, Sind-Hinduston va Anado'li hududlarida uch jabhada harakat qilishdi.

Qutayba ibn Muslim Turonning eng nomdor ikki shahri Samarqand va Buxoroni zabt etib bu

hududlarda xalifalik hokimiyatini to'liq o'rnatishga erishdi [7:344]. Shu davrdan boshlab xalifalik bevosita Turon shaharlarining iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta'sir o'tkaza boshladi.

Musulmonlar tomonidan egallangan hududlarda amal qilgan yer egaligining ildizlari Sosoniylar va Vizantiya tizimining davomi bo'lgan degan da'vo, klassik sharqshunoslar tomonidan anchadan beri takrorlab kelinayotgan bo'lsa-da, aslida Islom yer tizimining mohiyati va ruhini tashkil etuvchi asosiy qadriyatlar, asosiy toifalar va tushunchalar bevosita Qur'on, Sunnat hamda ilk musulmon jamiyatining o'z tajribasidan kelib chiqqani shubhasizdir. Bu holat yer va soliq tizimida qo'llanilgan tushuncha va toifalarda yanada ravshanroq ko'zga tashlanadi. Yer mulkchiligi o'ldir shakllarga qarab yerlar turli tasniflarga bo'lingan. Bu yerda mulkchilikning xarakterini belgilashda asosiy mezon o'sha hududning qanday tarzda egallanganiga bog'liq bo'lgan.

Agar yer urush yo'li bilan fath qilinib, eski egalari tasarrufida qoldirilgan bo'lsa, bu yerlar fay yeri (xarajiy yer) hisoblanadi. Bu toifa tarkibiga eski egalari tasarrufida qolgan yerlar bilan bir qatorda, egasiz yerlar hamda o'lik (mevot) yerlar ham kiradi. Agar yer sulh yo'li bilan fath qilingan bo'lsa va tuzilgan bitimda buning aksini bildiruvchi band mavjud bo'lmasa, bu yerlar eski egalarning shaxsiy mulki hisoblanadi, ular to'lagan soliq esa fay solig'i deb ataladi. Shuningdek, fath paytida Islomni qabul qilib, Islom davlatining hokimiyatini tan olgan shaxslar, o'lik yerlarni obod qilganlar (ihyo qilganlar) yoki davlat tomonidan mulkiy iqto' yo'li bilan berilgan yerlar (masalan, qati'a yoki day'a) ham ularning shaxsiy mulki hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Turonda Arab xalifaligiga qaramlik davrida xo'jalik munosabatlari shariat ahkomlariga muvofiq tartibga solingan. Shunga ko'ra Turonda yer-mulkning quyidagi turlari mavjud bo'lganini ko'rishimiz mumkin: xaraj yerlari, xalifa ixtiyoridagi yerlar (savofiy), iqto yerlari.

Fay tuproqlari.

Fay so'zi lug'aviy jihatdan "qaytib kelgan narsa" degan ma'noni anglatadi. Istiloh (termin) sifatida esa, urush yo'li bilan qo'lga kiritilgan yerlardan olinadigan daromadlarni bildiradi [13: 87].

Abu Ubayd o'zining *al-Amvol* nomli asarida fayni quyidagicha tariflaydi: "Sulh shartnomasi tuzilgan hududlardan olinadigan jizya, urush

yo'li bilan qo'lga kiritilgan yer va mol-mulkdan olinadigan xaraj, xorijiy savdogarlardan olinadigan ushr solig'i – bularning barchasi, boyu kambag'alidan qat'i nazar, musulmonlar umumiy egalik qiladigan fay' hisoblanadi" [3:20,23].

Fay masalasi ilk bor Payg'ambar alayhissalom davrida, hijratning 4-yilida Bani Nadir yahudiylari Madinadan surgun qilingach yuzaga kelgan. Payg'ambarimiz (s.a.v.) ushbu voqeada qo'shin qatnashgan bo'lsa-da, qo'lga kiritilgan mol-mulkni g'animat sifatida taqsimlamay, muhtoj muhojirlarga berishni qaror qilganlar. Bu voqea ortidan Hashr surasining 6–10-oyatlari nozil bo'lgan. Ushbu oyatlar – "Fay oyatlari" nomi bilan mashhur bo'lib – birinchi marta bir hudud musulmonlar tasarrufiga o'tganda, u yerda qanday mulkchilik va boshqaruv bo'lishi kerakligini huquqiy jihatdan izohlaydi.

Hazrat Umar ibn Xattob ushbu masalada Hashr surasining 8–10-oyatlaridagi:

"(Allohning bergan bu mol-mulkleri) o'z yurtlaridan chiqarilgan, Allohning fazlini va roziligini izlagan, Allohning diniga va Payg'ambariga yordam bergan kambag'al muhojirlar uchundir" – degan oyatlarni asos qilib olib, fay'ni butun musulmonlar uchun umumiy haqlar sifatida talqin qilgan. U yerlarning mulkini shaxsiy tasarrufga emas, ummat nomidan vaqf (habs) shakliga kiritgan, ya'ni jamiyat manfaati yo'lida doimiy foydalanishga ajratgan.

Hazrat Umar oyatga yangi bir talqin berib, fay tushunchasi doirasiga urush bilan qo'lga kiritilgan yerlarni ham kiritgan. Fay fathlardan so'ng musulmon jamoasiga umumiy va tenglik asosida ajratilgan, davlat rahbari (imom) boshqaruvida bo'lgan va daromadlari har yili taqsimlab beriladigan barcha jizya, xaraj, ushr solig'i va yerlarni anglatadi [1:189]. Dastlab, fay so'zi Hira, Banikyo va Ullaays kabi sulh asosida tasarrufga o'tilgan yerlar orqali olinadigan daromadlarni bildirgan [10:IV. 96]. Biroq hijriy 21-yil (milodiy 642-yil)dan boshlab, urush bilan fath etilgan yerlar uchun ham fay atamasi qo'llanila boshlangan [10:III. 352].

Yer mulkchiligi nuqtayi nazaridan, urush orqali musulmonlar tomonidan egallangan, ammo eski egalari tasarrufida qolgan yerlarga fay yerlar deyiladi. Bunday hollarda, eski egalari bu yerlarning haqiqiy egalari emas, go'yoki ijarachilar hisoblanadi. Ushbu yerlar ustidan to'lanadigan xaraj esa aslida ijara to'lovi maqomidadir. Chunki bu yerlarning asl egasi Islom ummati, ya'ni butun musulmon jamoasi bo'lib, ular nomidan davlat ushbu yerlarga vakillik qiladi.

Shuningdek, bu toifaga quyidagi yerlar ham kiradi: Urush bilan egallangan ('anva) hududlardagi yerlar, egasiz qolgan yerlar (savofiy), o'lik, tashlandiq yerlar (mevot), meros qoldirmay vafot etgan kishilarning yer-mulkilari (hashriyya). Bu toifadagi barcha yerlar fay' yerlar hisoblanadi va ular ustidan olinadigan daromadlar, ijtimoiy adolat, tenglik va umumiy manfaatga xizmat qiladigan tarzda taqsimlanishi kerak bo'lgan.

Xarojiy yerlar:

Fay yerlari tarkibiga kiruvchi, urush bilan fath etilgan hududlardagi eski egalari qo'lida qoldirilgan xarojiy yerlar ustidan mulk huquqi davlat nomidan, ya'ni butun musulmonlar nomidan fay mulki sifatida saqlanadi. Bu yerlar ustida ishlayotganlar uchun davlat tomonidan belgilangan ba'zi cheklovlar mavjud bo'lib, nazariy jihatdan bu egalik doimiy va merosiy ijara shaklini olgan ko'rinadi. Biroq amalda dehqonlarning bu yerlar ustida haqiqiy mulkdor kabi harakat qilgani kuzatiladi [15:247]. Ya'ni, yer egaligi aslida davlatga tegishli bo'lsa-da, yer egasi sifatida ko'ringan shaxslar bu yerlarni shaxsiy mulk sifatida emas, balki ishlatish va hosil yetishtirish uchun olgan ko'rinadi. Shunga qaramay, dehqonning ijaradorlik maqomi amaliy emas, balki huquqiy (hukmiy) xarakterga ega bo'lgan. Ya'ni ular rasmiy ravishda yerning egasi bo'lmasa-da, amalda egadek harakat qilishgan. Bu yerlar ustidan mulk shaklini o'zgartirish, ya'ni xaroj yerini ushr yeriga aylantirish huquqi ularga berilmagan [12:39].

Dehqonlar, yetishtirgan mahsulotidan davlat tomonidan belgilangan miqdorni ijara haqi (xaroj) sifatida to'lashlari shart bo'lgan. Bu tartibda, yerning mulk huquqi nazariy va huquqiy jihatdan davlat (va ummat) ixtiyorida qolgan bo'lsa-da, dehqonlarga ushbu yerlar ustida mulkdorning deyarli barcha iqtisodiy tasarruf huquqlari berilgan. Ya'ni, ishlab chiqarish, foyda olish, ekin turini tanlash, foydalanish shakllarini belgilash va hatto yer ustida meros qoldirish huquqlari amalda mavjud bo'lgan [12:40].

Fay mulk shakli vaqt o'tishi bilan faqat nazariy bir tushuncha sifatida saqlanib qolgan, amalda esa bu mulk shakli faqat olinadigan soliqlar bilan ifodalana boshlagan. Chunki davlatning bu turdagi yerlar ustidan bevosita mulk huquqini amalga oshirish imkoniyati bo'lmagani sababli, bu yerlar ustidagi mulk huquqi shaklan, tashqi ko'rinishda mavjud bo'lgan.

Abu Yusufning "Fay – Alloh bilguvchidir, ammo aslida u xarojdir" degan so'zlari ushbu

o'zgarishning guvohidir. Uning xalifa Horun ar-Rashidga yozgan maktubida: "Xaroj yerlar egalari mulkidir, ularning qo'lidan olinmaydi, ular bu yerlarni meros qilib qoldirish va sotish huquqiga egadirlar" [4:63] degan ifodalari, xaroj yerlarining amaliyotda to'liq ravishda xususiy mulkka aylanganini ko'rsatadi. Biroq bu yerlar ustidan olinadigan soliqlar tufayli, ular hanuzgacha ummat mulki deb hisoblangan va shu tarzda davlat nazoratida saqlanib qolgan.

Umar ibn Abdulaziz hijriy 100-yilgacha musulmon arablar egalik qilgan xaroj yerlarga 'ushriy maqom bergan, ya'ni ularni musulmonlarga xos yer solig'i tizimiga o'tkazgan. Biroq u fay deb hisoblagan yerlardan, o'sha davrda hali ham zimmiylar – ya'ni g'ayri musulmon dehqonlar qo'lida bo'lgan qismlarining musulmonlarga, ayniqsa arablarga sotilishini shu davrdan boshlab taqiqladi [3:175].

Yazid II va Hishom ibn Abdulmalik ham Umar ibn Abdulaziz belgilagan ushbu tartibga amal qilganlar [10: VII. 173]. Shunga qaramay, Hishom davrida ayrim arablarning xaroj yerlarini sotib olib, xaroj to'lab foydalanganlari ma'lum. Bu holat, bunday savdolar faqat davlat ruxsati bilan amalga oshirilgani bilan izohlanadi. Keyinchalik bunday yerlar savdo, mahr, yoki meros yo'li bilan yana musulmonlar qo'lga o'tgan va natijada 'ushriy maqomga o'zgargan. Biroq Abbosiy xalifasi Abu Ja'far al-Mansur hijriy 140 yoki 141-yillarda (milodiy 757 yoki 758) tashkil qilgan komissiyalar orqali, imkon qadar bu yerlarga xaroj maqomini qaytadan tiklashga harakat qilgan.

Xaroj yerlari bu Arab xalifaligi qo'shinlari tomonidan harbiy harakatlar davomida egallangan hamda ma'lum bir miqdorda xaroj solig'i to'lash sharti bilan o'z egalarida, zimmiylarda (Islomni qabul qilmagan aholi) qoldirigan yerlar hisoblangan [4:63].

Bu yerlarning xaroj yerlari deya nom berilishining sababi bu yerlardan xalifalik xazinasiga xaroj solig'i olingani bilan bog'liqdir.

Xalifa Umar ibn Xattob (34-644) davridan boshlab jang yo'li bilan egallangan yerlar xarojiy yerlar sifatida o'z egalarida qoldirilgan. Bunga huquqiy-shar'iy jihatdan Qur'oni karimdagi "Hashr" surasi 7-10-oyatlari asos qilib olingan. Xalifa Umardan oldin egallab olingan yerlar egalardan olinib asakarlar orasida taqsim etilgan, yani yerga ham urushda qo'lga kiritilgan o'lja sifatida qaralgan. Savod yerlari (hozirgi Iroq) egallab olingach xalifadan bu yerlarni musulmon askarlar orasida taqsimlash talab etiladi. Umar esa

bu yerlarni taqsimlamasligini, balki bu yerlar o'z egalarida qoldirilishini, bu yerlardan keladigan daromadni musulmonlarga sarflashini bildiradi [16:72]. Shundan so'ng qilich yo'li bilan egallangan barcha yerlar uchun bu qoida amal qila boshladi.

Turon hududida eng keng tarqalgan yer egaligi turi bu xarojiy yerlar bo'lgan. Islom dinini qabul qilmagan zimmiy aholi ixtiyoridagi yerlar shu nom bilan atalgan. Bu yerlardan xalifalik xazinasiga xaroji muqosama yoki xaroji muvoza fa shakllaridagi soliq olingan. Yilda necha marta hosil olinishiga qarab yerdan bir marta yoki ikki uch martaga qadar xaroj solig'i undirib olingan. Xaroj solig'i pul yoki mahsulot ko'rinishida olingan.

Xarojiy yerlarning egalari (zimmiylar) avvalida Islom dinini qabul qilmagani sababli ham yer solig'i xarojga tortilgan bo'lsa, keyinchalik musulmon bo'lganlaridan keyin ham bu soliqdan ozod etilmagan. Hanafiy mazahabi ulamolarining fikriga ko'ra xarojiy yer egasi musulmon bo'lsa uning yeri ushr yeriga¹ aylanmaydi va u xaroj to'lashni davom etadi, shu bilan birga musulmon bo'lganidan so'ng undan bu yer uchun zakot olinmaydi [16:168]. Ya'ni musulmon bo'lgan zimmiy faqatgina jizya to'lashdan ozod etiladi, yer solig'i bo'lgan xarojni esa to'lashda davom etadi.

Turondagi g'ayri muslim (zimmiylar) aholi to'lashi lozim bo'lgan asosiy soliqni jizya va xaroj tashkil etgan.

Xaroj (xarj) – “yer solig'i”. Bu soliq Islomdan avvalgi davrda ham mavjud bo'lgan va dehqonlar olingan hosilning ma'lum qismini davlatga to'lashgan. Xalifalikda esa urush yo'li bilan egallab olingan yerlar xalifa Umar (634-644) davridan boshlab o'z egalarida qoldirilib ulardan 1/3, 1/4, 1/5 shaklida soliq undirilgan [3:73].

“Hashr surasi “7-10”- oyatlar shar'iy dalil qilingan va urushlarda qo'lga kiritilgan yerlar avvalgi egalarida qoldirilgan, ular endi xalifalik nazoratidagi yerda ijarachi maqomida ishlashgan va ijara haqqi sifatida soliq to'lashni boshlashgan.

Xaroj solig'i hosilning 1/3/, ¼ yoki 1/5 qismini tashkil etgan. Xaroj xalifalik hududida ikki turda muqosama² va mavazzafa³ shakllarida

olingan. Xalifa tomonidan voliy tayinlanganda u bilan birgalikda xaroj yig'uvchilar boshlig'i ham tayinlangan. (Bu tizim Turk xoqonligida ham bo'lgan. Choch misolida tegin va tudun) Xalifa Umar ibn Abdulaziz davrida Xurosonga yangi voliy tayinlanganda u bilan birga Abdurrahmon al-Qushayriy xaroj va jizya ishlarini nazorat etishi uchun yuboradi [5: 600]. Turon shaharlari uchun ham alohida- alohida xaroj yig'ish ishlariga javobgar shaxslar mavjud bo'lib, ular Xuroson voliysi tomonidan tayinlangan. 102/ 721-722 – yilda Xuroson voliyiligiga tayinlangan Said ibn Abdulaziz Samarqand xalqining isyonidan keyin Samarqandning xaroj ishlariga Sulaymon ibn Abu Sirrani tayinlaydi [13:V.92]. Bundan xulosa qilish mumkinki, xalifa tomonidan Xuroson voliysi bilan birgalikda Xuroson viloyatining umumiy xaroj va jizya soliqlarini to'plashga rahbar ham tayinlangan. Shaharlar uchun esa xaroj va jizya soliqlarini yig'ilishini nazorat qiluvchi shaxslar Xuroson voliysi tomonidan tayinlangan. Ma'lum tizimga asoslangan holatda faoliyat yurutgan omillarga quyi pog'onada aholining yetakchilari dehqonlar, marzubonlar ham soliq yig'ish ishlarida yordam bergan [10:VII.268].

Arab xalifaligida yerga soliq solish bo'yicha asosiy ikki tizim qo'llanilgan. Bu usullarni Movardiy ikki asosiy soliq solish usuli sifatida quyidagicha tasniflaydi [6:194]:

1. Masaha tizimi – bu tizimning o'zi ikki shaklga bo'linadi:

a) *Masaha-yi jaribiy* – ya'ni yer maydoni asosida belgilangan soliq;

b) *Masaha-yi dirhamiy* – ya'ni maydonga qarab, ma'lum miqdorda pul (dirham) bilan belgilangan soliq.

2. Muqosama (kayliy) tizimi – ya'ni hosildan ulush chiqarish asosidagi soliq tizimi bo'lib, hosilning belgilangan foizi davlatga topshiriladi.

Bu ikki usul yerning turi, unumdorligi va iqlimiy sharoitlariga qarab tanlangan. Muqosama tizimi, ayniqsa qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlarda keng qo'llanilgan.

Masaha tizimi yer maydonlarini aniqlash va shu maydonlar asosida soliq belgilashga majbur bo'lganligi sababli, bu tizimda yer o'lchovlarini aniqlashtirish - ya'ni ta'dil ishlari muqarrar bo'lgan. Bunga qarama-qarshi ravishda, muqosama tizimida soliq to'g'ridan-to'g'ri yetishtirilgan hosildan olinadi. Shuning uchun bu tizimda yerning kattaligi, unumdorligi yoki boshqa xususiyatlari davlatni, ya'ni soliq yig'uvchini bevosita qiziqitmaydi. Shu

¹ Sulh yo'li bilan qo'lga kiritilgan yerlar bo'lib, aholi bu yerlardan 1/10 miqdorda ushr solig'i to'lagan.

² Xaroji muqosama – xaroj solig'ining bir turi bo'lib, bunda yil davomida yer egasi necha marta hosil olsa, har hosil yig'imida omil soliq yig'uvchi ishtirokida hosil hisoblanib, ma'lum qismi xalifalik xazinasiga olinishi.

³ Xaroji mavazzafa- yil boshida xalifa yo voliy tomonidan yer egasiga uning yeri joylashgan o'rni, unumdorligi va sug'orilish jihatlari inobatga olingan holatda oldindan ma'lum miqdorda belgilab beriladigan soliq.

sababli, ta'dil ishlari olib borilgan hududlar aynan masaha usuli asosida soliq olinadigan joylar bo'lib hisoblanadi. Bu mulohazadan kelib chiqib, Jazira, Shom, Misr, Fors va Qum kabi hududlarda ta'dil ishlari olib borilganligi e'tiborga olinsa [17: 273], ushbu hududlarda masaha tizimi amalda bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin. Turon hududida esa bunday jarayonlar juzatilmaydi, bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Turon hududida masoha tizimi emas balki muqosama tizimi amalda bo'lgan.

Masaha tizimining eng katta muammosi shundan iborat ediki, unda soliq ko'pincha dirham (pul) birligida, ya'ni naqd shaklda belgilangan. Shu sababli, soliq to'lovchilar (dehqonlar) kerakli naqd mablag'ni to'lash uchun o'z hosilini bozorda sotishga majbur bo'lgan. Agar narxlar yuqori bo'lsa, dehqon ozgina hosilni sotib ham soliqni to'lay olgan. Biroq bu holatda davlat o'zi to'plagan pul bilan zaruriy ehtiyojlarini to'liq qoplay olmas edi. Aksincha, narxlar past bo'lgan paytlarda, dehqon katta miqdordagi hosilini sotishga majbur bo'lgan va bu, ayniqsa Jazira va Iroq mintaqalarida dehqonlarni tez-tez shaharli foizxo'rlarning qo'liga tushirib qo'yardi.

Bu tizimda davlat bilan yer egasining manfaatlari deyarli hech qachon bir joyda to'g'ri kelmagan. Masaha tizimi asl mohiyatiga ko'ra ishlab chiqarish va narxlar doimiy, o'zgarmas bo'lib qoladi deb faraz qilgan. Ammo narxlar o'zgarib turgani sababli, bu tizim ba'zida davlatni, ko'proq hollarda esa dehqonlarni soliqni to'lay olmaydigan ahvolga solib qo'ygan [16:222]. Shu boisdan, ham davlat, ham xalq manfaatlariga mos keladigan yangi bir tizimga ehtiyoj sezilgan [4:50].

Muqosama tizimi, aslida musulmon jamiyati uchun butunlay begona emas edi. Bu tizimni taklif qilgan Ebu Ubayd ham Rasululloh (s.a.v.) tomonidan Xaybar vohasida qo'llanilgan amaliyotni misol sifatida keltirgan. Tadqiqotchi Lokkegeardning fikriga ko'ra, Umaviylar davrida davlat yerlarini boshqarishda hamda iqto yerlarida muqosama tizimi qo'llanilgan [8: 113].

Muqosama tizimi asosan sug'oriladigan hududlarda qo'llanilgan soliq shaklidir. Bu tizimning birinchi marta Savod (Sevad) yerlarida joriy etilgani ham shu jihatdan ma'nolidir. Shu bois bu tizimning joriy etilishida, ushbu hududdagi yuqori hosildorlikdan foydalanish niyati yotganini taxmin qilish mumkin. Darhaqiqat, Abu Yusuf bu tizim Baytulmolga katta daromad keltiradi deb o'ylagan bo'lishi mumkin [4:50]. Biroq muqosama

tizimi faqat Savod va Jazira hududlari bilan cheklanganini, hatto Savodning o'zida ham ayrim joylarda masaha tizimi asosida soliq olinganini ko'rish mumkin.

Muqosama usulida soliq jarayonlari, ya'ni soliqlarning aniqlanishi va hisoblanishi to'g'ridan-to'g'ri hosil yig'ib olinadigan paytda — xirmanda (arabcha: baydar) amalga oshiriladi. Chunki ushbu tizimda soliq bevosita dalada to'plangan mahsulotdan olinadi. Shu sababli, odatda "kiffir", "kafiz" kabi o'lchov vositalari ishlatiladi; soliq avval naturada (ya'ni aynan mahsulot shaklida) hisoblanadi, keyin esa bu mahsulotlarning qiymati (varaq) orqali pulga aylantirib hisob-kitob qilinadi.

Bundan tashqari, bu usulda mahsulot asosiy o'lchov birligi bo'lganligi sababli, soliq ham aynan mahsulot yetishtiriladigan mavsumlarda olinadi. Shu bois, soliqlarning vaqti oy (qamariy) yiliga emas, balki quyosh (shamsiy) yiliga asoslanadi. Ya'ni, soliq hosil yetiladigan faslga qarab undiriladi.

Soliq ayni shaklda (mahsulot ko'rinishida) yig'iladigan hollarda esa, masalan, bug'doy, arpa kabi mahsulotlarning saqlanishi, tashilishi kabi yuklamalar va ular bilan bog'liq bo'lgan maxsus mas'ul xodimlar (mulozimlar) bo'lgan. Bu holatda davlat uchun tashkiliy va moddiy jihatdan qo'shimcha mas'uliyatlar yuzaga kelgan [9:302].

Muqosama tizimini qo'llashda ham ko'plab murakkabliklar mavjud edi. Turli xil mahsulotlardan olinadigan soliq miqdorlarini aniqlash, mahsulot turlari ko'paygan sari ularni taqsimlash, baholash va o'lchash o'z-o'zidan murakkab muammo bo'lib chiqardi. Chunki har bir mahsulotning o'ziga xos og'irligi, soliq miqdori va narxi bo'lib, ular bir-biridan farq qilardi; bu esa, kamida viloyatlar o'rtasida narxlarning jiddiy tafovutiga olib kelardi.

Yana bir muammo — har bir hududda har xil o'lchov birligining ishlatilganligi edi. Bu o'lchovlar o'rtasidagi tafovut shu qadar katta bo'lganki, davlat markaz tomonidan asosiy (sultoniy) o'lchov birliklarini belgilab qo'ygan va soliq aynan shu o'lchovga muvofiq holda markazga topshirilgan.

Muqosama tizimining asosiy qiyinchiliklari quyidagilardan iborat edi: yetishtirilgan hosilning aniq va ishonchli tarzda aniqlanishi; hosil taqsim qilinmaguncha xirmonda (dalada) saqlanishi majburiyati; mahsulot ayniy (ya'ni mahsulot holida) yig'ib olingan hollarda uni saqlash, omborlash va tashishdagi muammolar. Bundan tashqari, dehqon hosildan foydalanib qo'ymasligi uchun oldindan taxminlar (hazr) qilinar, bu esa yig'im-terim vaqtida davlat vakillari bilan dehqonlar o'rtasida

ziddiyat va kelishmovchiliklarga sabab bo'lardi. Bu holatlar muqosama tizimining amaliyotda yuzaga keltirgan jiddiy noqulayliklari hisoblanadi.

Savofiy yerlar. Turon hududida xalifalik nazorati o'rnatilgandan keyin yer-mulkchilikdagi o'zgarishlardan biri bu savofiy yerlar bo'ldi. Savofiy – bu, egasi bo'lmagani sababli bevosita davlat nazorati ostida bo'lgan barcha qishloq xo'jaligi yerlarini va ko'chmas mulklarni o'z ichiga olgan, davlat rahbari esa ummat manfaatlarini ko'zlab bevosita tasarruf qilish huquqiga ega bo'lgan yerlardir [2:54]. Klassik lug'atlarda esa “egasi vafot etgan, qochib ketgan yoki meros qoldirmay vafot etgan shaxslarning yerlarining davlat rahbari tomonidan tanlanishi” yoki “davlat rahbarining o'zi uchun maxsus tanlagan yer (mulk)lariga *savofiy* deyiladi” deb tarif berilgan.

Savofiy yerlari Islom jamiyatining kun tartibiga keng miqyosda kirib kelishi, Sosoniylar davlati xalifa Umar davrida qulaganidan so'ng, Savod (Iroqning unumdor yerlari)ning qayta tartibga solinishi jarayonida yuz bergan. Balozuriy bergan ro'yxatga ko'ra, Sosoniylar davridan qolgan va o'sha paytda “Divan-I Istandarih” deb atalgan maxsus divon boshqaruvi ostida bo'lgan ushbu savofiy yerlar o'nta turdagi yer maydonlaridan iborat edi: Sosoniy shohining shaxsiy mulklari, boshqaruvchilarning va ularning yaqinlariga tegishli mulklar, urush vaqtida yerlarini tark etib qochganlarning mulklari, urushda halok bo'lganlarning mulklari, qamishzorlar (a'jam), majusiy ibodatxonalariga (ma'badlariga) tegishli yerlar, dinini o'zgartirganlarga (ya'ni Islomni qabul qilgan) tegishli yerlar, suv bo'yidagi yerlar, Eron shohlari (Kisrolar) tomonidan maxsus tasniflangan yerlar, Kisro bilan birga qochgan yoki o'ldirilgan kishilarning vorislarining qo'lida qolgan mulklar [4:58].

Sosoniylar davlati qulatilgandan so'ng VII asrning o'rtalaridan bevosita Turon chegarasiga yetgan musulmon qo'shinlari birin ketin shaharlarni egallay boshlashdi va VIII asr boshlariga kelib deyarli markaziy shaharlarning barchasi xalifalik nazoratiga o'tdi. Shundan so'ng xuddi Eron jug'rofiyasida amalga oshirilgan tizim Turonda ham joriy etilganini taxmin qilishimiz mumkin. Lekin bu haqda o'sha davr manbalarida ma'lumotlar uchramaydi. Xalifalik yer-egaligi tizimi shakllanish jarayonini tadqiq qilgan tarixchilarning fikricha hududlardagi hukmron xonadon vakillariga tegishli bo'lgan hamda egasi janglarda halok bo'lgan yoki qochib ketgan yerlar, suv bo'yidagi yerlar

xuddi boshqa hududlarda savofiy yerlar sifatida ajratilgani singari Turon hududida ham shunday holat jarayon etgan.

Umaviylar davridan boshlab, savofiy yerlar to'liq davlat tasarrufiga o'tkazilib, Baytulmol (davlat g'aznasi) mulkiga aylantirildi. Keyinchalik esa bu savofiy yerlar hukmdorlar tomonidan o'z tarafdorlariga iqto tarzida (ya'ni foydalanish huquqi asosida) berilib, xususiy mulk maqomini oldi.

Umar ibn Abdulaziz hokimiyatga kelgach, savofiy yerlari Xulafoyi Roshidin davridagi holatiga qaytarishga harakat qildi. Bu borada u yozgan bir maktubida shunday deydi: “Qo'lingizdagi savofiy yerlarni tekshirib chiqing va ularni 50 foizlik ulush bilan ishlatishga bering. Agar buning iloji bo'lmasa, 30 foizlik muzoro'a (yer egasi bilan dehqon o'rtasidagi hosil bo'lishiga asoslangan kelishuv) asosida bering. Shunday ham bo'lmasa, ulushni 10 foizgacha tushiring. Agar hech kim yerga urug' sepmasa, uni hadya qiling (bepul bering). Baribir ekilmasa, Baytulfoldan mablag' ajratib, ekishga sarflang” [18:60].

Abbosiylar hokimiyat tepasiga kelgach, bu turdagi yerlar “Diya' al-xilfa” nomi bilan Umaviylardan musodara qilindi. Umaviylardan tortib olingan ushbu yerlarning katta qismi Abbosiylar oilasi va ularning tarafdorlari mulkiga o'tdi [5:411]. Abu'l-Abbos Saffoh davrida musodara qilingan ushbu yerlarning boshqaruvi va nazoratini ta'minlash maqsadida “Divan al-Mehziya” yoki “Divan al-Musodara” nomi bilan mustaqil bir divon (idora) tashkil etilgan edi. Shuningdek, Xalifa Mansur davrida savofiy yerlari bilan shug'ullanish uchun maxsus kotib tayinlangan edi.

Iqto mulklari – iqto va yoki qatia – (ajratilgan, bo'lak) bo'lib, ajratib in'om etilgan yer manosida qo'llanilgan. Xalifalik tomonidan egallangan hududlardagi oldingi xonadon mansublariga, urushlar davomida o'ldirilgan yoki boshqa hududlarga qochib ketgan aslzodlarga tegishli bo'lgan yerlar baytulmol nazoratiga olingan bo'lib ularni xalifa xohlagan kishisiga iqto qilib berishi mumkin bo'lgan. Iqto yoki qati'alar merosiy mulk sifatida berilgan. Iqto berilgan amaldor bu yerlardan olinadigan soliqlarni o'zi yig'ib olgan bundan ma'lum qismini xalifalik xazinasiga topshirgan [14:46]. Iqto berilgan amaldor bu yerlardan olinadigan soliqlarni o'zi yig'ib olgan bundan ma'lum qismini xalifalik xazinasiga topshirgan. Ma'mun (813-833) xalifa bo'lgandan

keyin Xuroson hududini Tohir ibn Husaynga iqto qilib bergan [11:345].

Qudoma ibn Ja'far (vafoti 337/947 y.) "iqto" (yer taqsimoti) ni quyidagicha tariflaydi: "Davlat rahbarining, ma'lum bir to'lov evaziga, bellashuv (raqobat) asosida, munosib deb topgan kishiga yer berishidir" [16:218]. Xorazmiy ham ushbu ta'rifga qo'shilgan holda, iqto qilingan yer uchun "qatia" (قطيعة) atamasi ishlatilishini qo'shimcha qiladi [14:86].

Umaviylar davrida iqto ajratishdagi ko'payish va ko'zlangan maqsadlar, Xulafoyi Roshidin davridan sezilarli farq qilgan. Eng avvalo, iqto berilgan shaxslar tahlil qilinadigan bo'lsa, bu amaliyot saltanat tizimining ichki mantiqiga bog'liq tarzda, asosan Umayya (Umaviy) oilasi a'zolari va ularni qo'llab-quvvatlovchi qabila boshliqlari (shayxlar) foydasiga amalga oshirilgan.

Shuningdek, tashlandiq yerlarni (al-arazi al-amvat) o'zlashtirish faoliyatlari ham olib borilgan. Unga ko'ra tashlandiq yerlar (milk) ijarachiga o'zlashtirish uchun berilgan. Buning evaziga ijarachi faqatgina davlat foydasiga yer solig'i to'lagan. Bunda ham ekishga yaroqli holga keltirilgan yerning joylashuvi va sug'orilishiga qarab uning xarojiy yoki ushriy yer sifatida qayd etilgan. Turon hududidagi bunday yerlar xarojiy yerlar sirasiga kirgan.

XULOSA

Xalifalik qo'shinlari ilk davrda Turon hududiga amalga oshirgan harbiy yurishlarda o'lkani to'liq xalifalik nazoratiga kiritish maqsadi bo'lmagan bu davrda ular o'lkadagi yer egaligi masalalariga hech qanday tasir o'tkazmagan. Keyinchalik VIII asr boshlaridagi harbiy yurishlar oraqali esa Turonning markaziy shaharlari arablarga tobe bo'lib qola boshlagan va arab xalifaligi yurgizgan yer-mulk sohasidagi siyosatga muvofiq o'lkaning hukmdor va aslzodalariga hamda urushlarda o'lganlarga tegishli hududlar davlat nazoratiga olingan, ijaraga berilgan va yoki arab amirlariga iqto sifatida taqdim etilgan.

Egalari mavjud yerlar esa xaroj solig'i to'lash sharti bilan egalarida qoldirilgan va hosil yig'ib olinishi bilan undan xalifalik xazinasiga soliq olingan. Bu soliq turi Turon aholisi uchun yangilik bo'lmagan, ular xoqonlik tarkibida bo'lganda ham yer solig'i to'lashgan. Xoqonlikda soliqlarni yig'ish masalasida tudunlar boshchilik qilishgan

bo'lsa xalifalik davrida omillar tomonidan bu vazifa amalga oshirildi.

Abbosiylar davrida ham bu siyosat deyarli davom etgan faqatgina bu davrda o'lkadagi iqto yerlarning asosiy qismi arablarga emas balki xalifalikda yuqori obro'ga ega bo'lgan turk va forslarga ham berilishi boshlangan. Ma'lumki turklar va forslardan islom dinini qabul qilganlari sekin asta xalifalik qo'shinida oddiy askarlikdan qo'mondonlikkacha, saroydagi oddiy xizmatchidan vazirlik darajalarigacha ko'tarilishgan. Ma'lum bir xizmatlari uchun xalifaning etiboriga tushgan turk va forslarga Xuroson hamda Turkistondagi ma'lum yerlar iqto qilib berilgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Abdulaziz ibn Muhammad Rahbi. Fiqh al-muluk. – Bag'dod: Riyosat divon al-avqof, 1973. – 1372 b.
2. Abdulmahdiy Misriy. Arz as-savofiy va-l-mavot. – Umman, 1988.
3. Abu Ubayd. Kitob al-amvol. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1986. – 624 b.
4. Abu Yusuf. Kitob al-xaroj. – Bayrut: Dar al-ma'arif, 1979. – 244 b.
5. Abul Hasan Balozuriy. Futuh al-buldon. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1991. – 460 b.
6. Abul Hasan Movardiy. Al-Ahkom as-sultoniya. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1985. – 327 b.
7. Ahmad ibn Abi Yaqub. Kitob at-Tarix. – Leyden, 1883.
8. Frede Lokkegaard. Islamic taxation in the classic period. – Lahor: Sindh Sagar Academy, 1979, 286 p.
9. Ibn Havqal. Kitob surat al-arz. – Leyden: E.J.Brill, 1938. – 528 b.
10. Ibn Jarir at-Tabariy. Tarix ar-rusul va-l-muluk. 1-9 jildlar. – Bayrut, 1964.
11. Ibn Kasir. Al-Bidoya va-n-nihoya. – Bayrut: Dor al-ma'orif, 2009. – 3490 b.
12. Ibn Rajab. Al-Istixroj fi ahkom al-xaroj. – Bayrut: Dor al-ma'orif, 1979. – 125 b.
13. Ibnul Asir. Al-Komil fi-t-tarix. – Bayrut: Dor as-sadr, 1965.
14. Muhammad ibn Ahmad al-Xorazmiy. Mafotih al-ulum. – Bayrut: Dor al-kitob al-arabiy, 1989. – 341 b.
15. Muhsin Xalil. Fi-l-fikri-l-iqtisod al-arabiya. – Bag'dod, 1982. – 348 b.
16. Qudoma ibn Ja'far. Kitob al-xaroj. – Bag'dod, 1981.
17. Solih Ahmad Ali. Al-Xaroj fi-l-Iraq. – Bag'dod: Majma' al-ilmiy al-Iroqiy, 1990. – 360 b.
18. Yahyo ibn Odam. Kitob al-xaroj. – Bayrut, 1979.